

## **Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti**

“Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurtining Vatan himoyasi va qurolli kuchlar uchun harbiy kadrlarni tayyorlash yo‘lidagi tarixiy hissasi”  
mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjumanning

### **AXBOROT XATI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 27-apreldagi 39-son farmoyishining 1-ilovasi “2023 yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi”ga ko‘ra **2023 yil 10 noyabr kuni Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurtida “Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurtining vatan himoyasi va qurolli kuchlar uchun harbiy kadrlarni tayyorlash yo‘lidagi tarixiy hissasi”** mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman o‘tkaziladi.

Xalqaro ilmiy-nazariy anjumanga ishtirok etish uchun mamlakatiimizda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari va tadqiqot markazlari, shuningdek xorijiy oliy, oliy harbiy ta’lim muassasalari vakillari va O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan diplomatik korpus vakillari taklif etiladi.

Anjumanda ishtirok etish uchun ilmiy maqolalar **2023 yilning 5 noyabr kun yakuniga qadar qabul qilinadi.**

Anjumanda ishtirok etishga buyurtma, ma’ruza mavzulari, ilmiy maqolalarning elektron shaklini 5 noyabrga qadar Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurtining ([tabiiy-ilmiy@mail.ru](mailto:tabiiy-ilmiy@mail.ru)), E-xat: [konselyariya.chvtkiu@mudofaa.exat.uz](mailto:konselyariya.chvtkiu@mudofaa.exat.uz) yoki +99897-784-28-01 telegram raqamiga yuborishingizni so‘raymiz.

**Taqdim etiladigan ilmiy maqola va tezislar va anjuman materiallarini rasmiylashtirishga talablar:**

Ilmiy maqola va tezislar elektron pochta orqali yuborilishi lozim (Word formatida fay - birinchi muallifning familiyasi, massalan: «otamatov.doc»).

Ilmiy maqola va tezislar imlo va mazmun jihatdan tahrir qilingan hamda rasmiylashtirish bo'yicha quyidagi texnik talablarga javob berish lozim.

Jumladan:

matn redaktori-Microsoft Word muharririda (Document word 1997-2003) formatida bajarilishi;

sahifa-o'lchami A4, kitob ko'rinishida, hamma tarafdan 20 mm.dan qoldirilgan holda;

shrift- Times New Roman kattaligi (kegl)-14;

qatorlar orasidagi va harf boshidagi interval-1,5;

ilmiy maqolalarning qisqacha matnli-annotatsiyasi (Abstrakt) 50-60 so'zdan iborat bo'lishi, kalit so'zlar (Keyword) ko'p bo'lmashligi talab etiladi,

ilmiy maqola konferensiya mavzusi yo'nalishi bo'yicha dolzarbligi va oldin chop etilmaganligi;

ilmiy maqola va tezisning hajmi 5 betdan kam bo'lmashligi, biroq 8 betdan oshmasligi talab etiladi va betlarga raqam qo'ilmaydi.

maqolalarning yuqori qismida muallifning ismi sharifi, otasining ismi, ish, (o'qish) joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, muassasa va tashkilotning nomi ko'rsatiladi, o'rtasida ilmiy maqollarning nomi (qalin shrift bilan) beriladi;

mualliflar soni uch kishidan ko'p bo'lmashligi;

maqola matni kirish, ilmiy tadqiqot usullari, tadqiqot natijalari va uning muhokamasi, xulosa qismi hamda adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lishi;

maqola chizma va rasmlarning nomlari chizma va rasmlarning tagida, jadval nomlari esa jadvalning ustida beriladi;

jadval, rasm va chizmalarning havolalari matnida beriladi;

foydalilanilgan manbalarning havolalari har bir betning oxirida joylashtiriladi.

ilmiy maqola va tezislarni 2023-yil 5 noyabr kuniga qadar elektron ko'rinishda (tabiiy-ilmiy@mail.ru), E-xat: konselyariya.Chvtkiu@mudofaa.exat.uz yoki +99897-784-28-01 (Ilmiy ishlar va innovatsion faoliyatni tashkil etish bo'limi) telegramiga yuborishingiz mumkin.

Taqdim etilgan ilmiy maqola va tezislar yuqorida ko'rsatilgan talablarga mos kelishi ekspertiza qilinadi hamda antiplagiat dasturi orqali tekshiriladi.

Ekspertlarning xulosasiga ko'ra talablarga mos kelmaydigan materiallar chop etilmaydi va muallifga qaytarib berilmaydi. Ijobiy deb topilgan ilmiy maqola va tezislar chop etish uchun anjuman materiallari to'plamiga kiritiladi, maqolalarning elektron to'plami Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtining rasmiy saytiga joylashtiriladi.

Ilmiy maqola va tezislar o'zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

Muallif maqola matnida berilgan ma'lumot uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

**Anjumanga maqola va tezislar qabul qilish uchun mas'ullar:** Bilim yurti ilmiy bo'limi, R.S.Vorisova, S.K.Ramonova, M.Sh.Islamova.

Telefon raqami: +998 (90)-345-74-15.

Telegram: +99897-784-28-01, 998(91)- 778-65-28.